Talabalarga innovatsion yondashuv asosida "o'zbek musiqasi tarixi" fanini o'qitish

Farrux Gaybulloyevich Nurullayev
Sabohat Sohib-qizi Rahimova
Buxoro davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston musiqa tarixining eng qadimgi davrlardan to XVI asrgacha davrdagi rivojlanishi va IX-XVI asrlarda Sharq allomalarining musiqa nazariyasi va musiqada shakllar rivoji borasida qo'shgan hissasi haqida ma'lumotlar berilgan.O'zbek musiqa tarixi fanini o`qitishda innovatsion yondashuvlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, davr, tarix, sozanda, xonanda, cholg'u, xofiz, bastakor, pedagogika, ta'lim, tarbiya, sharq,madaniyat, san'at, innovatsiya

Innovative approaches in teaching the subject "history of uzbek music"

Farrukh Gaybulloyevich Nurullayev
Sabohat Sohib-qizi Rahimova
Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article provides information about the history of music in Uzbekistan from ancient times to the 16th century and the contribution of Eastern scientists to the development of the theory of music and forms in music in the 9th-16th centuries. Innovative approaches to teaching the history of Uzbek music are discussed.

Keywords: music, era, history, performer, singer, performance, hafiz, composer, pedagogy, education, upbringing, east, culture, art, innovation

Bugungi kunda inson faoliyatining ko'plab sohalari, jumladan, ta'lim ham turli xil yangiliklarni joriy etish orqali ko'proq darajada rivojlanmoqda. Garchi innovatsiya va ta'limning umumiy jihatlari ko'p bo'lsa-da, ta'limga innovatsion usullarni joriy etish unchalik ham oson emas. Bugungi globallashuv davrida milliy madaniy merosni asrab-avaylash va uni yosh avlodga yetkazish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. O'zbek musiqasi asrlar davomida shakllangan boy xazina bo'lib, unda maqom san'ati, dostonchilik, bastakorlik, xalq og'zaki ijodi va cholg'u an'analari yaxlit uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari bu merosni chuqur bilishi, uni tahlil qila olishi va o'quvchilarga qiziqarli tarzda yetkaza olishi zarur. Shu

(cc) BY

sababli "O‘zbek musiqasi tarixi" fanini o‘qitishda zamonaviy, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash dolzarb pedagogik masalaga aylanmoqda.

An'anaviy o‘qitish usulida bu fan ko‘pincha ma'ruza va yodlashga asoslanadi. Talaba sanalar, nomlar va atamalarni yodlaydi, lekin musiqaning o‘zini kam eshitadi. Natijada fan quruq tarixiy ma'lumotlar majmuasiga aylanib, talabada qiziqish susayadi. Holbuki, musiqa tarixi eshitish, his qilish va taqqoslash orqali o‘rganilgandagina chuqur o‘zlashtiriladi. Bundan tashqari, bugungi talabalar raqamli muhitda ulg‘aygan, ular axborotni tez va vizual shaklda qabul qilishga odatlangan. Shuning uchun dars jarayonini ularning ehtiyojlari va o‘rganish uslublariga moslashtirish zarur.

Innovatsion yondashuv talabani bilim oluvchi passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirishni nazarda tutadi. Bunda o‘qituvchi bilim manbai emas, balki yo‘naltiruvchi, maslahatchi va hamkor sifatida ishtirok etadi. Dars markazida talabaning mustaqil izlanishi, tanqidiy fikrlashi va ijodiy faoliyati turadi. Innovatsion yondashuvning asosiy tamoyillari shaxsga yo‘naltirilganlik, amaliyot bilan bog‘liqlik, hamkorlik va texnologiyalardan unumli foydalanishdir. Ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabada fanga barqaror qiziqish uyg‘otadi va olingan bilimlarning uzoq muddat esda qolishini ta'minlaydi.

Interfaol metodlar bu yondashuvning amaliy asosini tashkil etadi. Masalan, "Aqliy hujum" metodi yordamida talabalar maqom turkumlari haqidagi mavjud tasavvurlarini ilgari suradi, so‘ngra mavzu chuqurlashtiriladi. "Klaster" usuli Shashmaqomning tarkibiy tuzilishini, ya'ni Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq maqomlarini yaxlit sxema shaklida tasavvur qilishga yordam beradi. "Venn diagrammasi" orqali Buxoro, Xorazm va Farg‘ona–Toshkent ijrochilik maktablarining o‘xshash va farqli jihatlari taqqoslanadi. Munozara va debat shaklidagi darslarda talabalar milliy musiqaning zamonaviy sharoitdagi o‘rni va rivojlanish yo‘llari haqida o‘z fikrlarini asoslab beradi. Bunday mashg‘ulotlar nutq madaniyatini ham rivojlantiradi.

Raqamli texnologiyalar fanni o‘qitishda katta imkoniyatlar yaratadi. Audio va video arxivlar, onlayn kutubxonalar hamda virtual muzeylar yordamida talabalar mashhur hofizlar, sozandalar va bastakorlarning noyob ijrolarini tinglashi mumkin. Har bir mavzu bo‘yicha QR-kodli o‘quv materiallari tayyorlansa, talaba telefon orqali ijro namunasi, tarixiy fotosurat yoki qisqa hujjatli lavhani darhol ko‘ra oladi. Kahoot, Quizizz kabi platformalar bilimlarni o‘yin shaklida tekshirishga, Padlet va Miro kabi vositalar jamoaviy ishlashga, Canva dasturi esa vizual taqdimotlar yaratishga xizmat qiladi. Kengaytirilgan reallik texnologiyalari yordamida qadimiy cholg‘ular, masalan, tanbur, dutor, doira va nay tuzilishini uch o‘lchamli shaklda o‘rganish ham mumkin.

Loyihaviy ta'lim usuli fanning samaradorligini sezilarli oshiradi. Talabalar kichik guruhlarga bo‘linib, muayyan bastakor, ijrochilik maktabi yoki tarixiy davr bo‘yicha

(cc) BY

mini-tadqiqot olib boradi. Ular tadqiqot natijalarini podkast, qisqa hujjatli film, interaktiv taqdimot yoki elektron xarita shaklida tayyorlashi mumkin. Masalan, "Mening hududim musiqa merosi" loyihasi doirasida talaba o'z viloyatidagi xalq ijodiyoti namunalarini yig'adi, bobokalon sozandalar va baxshilar bilan suhbat o'tkazadi, ularning ijrolarini yozib oladi. Bu faoliyat nafaqat bilimni chuqurlashtiradi, balki milliy merosni hujjatlashtirishda talabaning ham hissasini ta'minlaydi, vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlaydi.

Fanlararo integratsiya innovatsion yondashuvning muhim yo'nalishidir. O'zbek musiqasi tarixi cholg'u ijrochiligi, solfedjio, musiqa nazariyasi, adabiyot va umumiy tarix fanlari bilan uzviy bog'liq. Talaba maqom shuhbalarini o'rganar ekan, ularning ladli va ritmik xususiyatlarini cholg'uda ijro etib ko'rsa, adabiyot darsida o'rgangan Navoiy, Hofiz va Bedil g'azallarining maqom matni sifatidagi o'rnini anglasa, bilim yaxlit tizimga aylanadi. Shuningdek, tarixiy davrlar, ya'ni Amir Temur va Temuriylar davri, Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi va XX asr musiqa madaniyati o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rish talabaning tarixiy tafakkurini kengaytiradi.

Buning sababi shundaki, innovatsiyalar yangi g'oyalarni ishlab chiqarish va ularni jamiyatga tatbiq etish sifatida, o'z mohiyatiga ko'ra konservativ bo'lgan ta'lim ijtimoiy instituti bilan murakkab, ziddiyatli munosabatda bo'ladi. Musiqa ta'limidagi innovatsiyalarni tadqiq etish va qo'llash masalalariga ko'plab musiqashunoslar ilmiy izlanishlarni amalga oshirganlar. Mualliflar musiqa ta'limi jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning dolzarb umammolari ekanligini ta'kidlab o'tganlar. Biroq, o'qituvchilarning amaliyotida o'qitishda an'anaviy, umume'tirof etilgan metod va yondashuvlar ustunlik qiladi; qo'shimcha ta'lim o'qituvchilari tomonidan innovatsion o'qitish usullarining ahamiyatini yetarli darajada baholamaslik; an'anaviy ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'z-o'zidan bilim olish imkonini beruvchi asosiy kompetensiyalarni egallash uchun mo'ljallangan imkoniyatlarning yetarli emas.

Innovatsiya tushunchasining o'zi birinchi marta XIX asrda ilmiy tadqiqotlarda paydo bo'lgan. "Innovatsiya" tushunchasi XX asr boshlarida avstriyalik iqtisodchi Schumpeterian ilmiy ishlarida "innovatsion birikmalar", iqtisodiy tizimlar rivojlanishidagi o'zgarishlarni tahlil qilish natijasida qo'llanilgan. Pedagogik innovatsion jarayonlar G'arbda taxminan 1950-yillardan boshlab maxsus o'rganish predmetiga aylangan.

1980-yillarda N.Yu.Postalyuk ta'kidlaganidek, pedagogikada innovatsiya muammosi va shunga mos ravishda uning konseptual ta'minoti ham maxsus tadqiqot ob'ektiga aylandi [2].

V.Ivanchenko, V.Lazarev, I.Miloslavskiy, M.Potashniklarning ishlariga asoslanib, biz innovatsiya deganda har xil turdagi yangiliklarni yaratish, ishlab chiqish

(cc) BY

va amalga oshirish, shuningdek ularni qo‘llaniladigan takomillashtirilgan mahsulot ko‘rinishida o‘zgartirishni tushunamiz.

Oliy ta’lim tizimida musiqa ta’limida an’analar va innovatsiyalarni birlashtirish tendentsiyasi mavjud. Musiqa ta'limi muammolarini hal qilishning yangi yondashuvlarni, birinchi navbatda, musiqa o'qitishning maqsadlari, mazmuni va usullarini qayta ko'rib chiqish bilan bog'liq edi. Ilg‘or musiqa o‘qituvchilarining ijodiy merosida targ‘ib qilingan musiqa ta’limi metodlari bir tomondan musiqani san’at turi sifatida idrok etishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, inson tabiatini hisobga olishga, uni rivojlantirishga qaratilgan edi.

O'qituvchilar va talabalar faoliyatining xilma-xilligi didaktiklarni ushbu kontseptsiyani boshqacha talqin qilishga olib keladi va shu asosda ularni turli xil o'qitish usullarini ajratib ko'rsatish lozim bo‘ladi. “O‘zbek musiqa tarixi” fanini o‘qitishning zamonaviy pedagogik usullariga doir ko‘plab qo‘llanmalar mavjud, bunday uslublarni ilg‘or musiqa o‘qituvchilarining o‘zlari kashf qilganlar va ular yaxshi samara bermoqda. Xususan, “mavzu qanday bayon qilganda uning necha foizi o‘quvchi yodida saqlanadi, u tomonidan o‘zlashtiriladi?” degan tabiiy savolga javob topish maqsadida o‘tkazilgan ma’ruzalarning dialog shaklida olib borilishi tajriba yakunida bugungi o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlari o‘sib borayotganini ko‘rsatmoqda. Musiqa ta’limi yo‘nalishi talabalariga “Musiqa o‘qitishning innovatsion texnologiyalari” fanini o‘qitishda “Aqliy xujum”, “Juftlikda ishlaymiz”, “Musiqani top”, “Raqamlarni tanla”, “Xotira charxi” va boshqa usullarni qo‘llash jarayonida yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

“O‘zbek musiqa tarixi” fanini o‘qitishda talabalarga dars yakunida kelgusi darsgacha intellektual savollarni tuzib, unga nom qo‘yish topshirig‘iga javob olinishi ham samarali natija beradi.

Talaba mavzu yuzasidan o‘rtoqlari, ustozi bilan o‘zi muloqotga kirishishi, amaliy mashg‘ulotlarda qatnashishi, darsdan olgan bilimlarini gapirib bera olishi, ayniqsa vaqtning qadriga yetishi, ya’ni berilgan imkoniyatida ko‘proq manbalar haqida fikr yuritishi va nihoyat baholash hamda rag‘batlantirish jarayonlarida ham faol bo‘lishi kerak. Ana shunda olingan bilim mustaxkam bo‘ladi. Turli uslublarni o‘rganib, taqqoslab, hamkasblar bilan fikrlashib, har bir ustoz o‘z uslubini yarata oladi .

Musiqa o‘qituvchisi o‘quv va tarbiya ishlarini olib boradi. U faqatgina keng bilimga ega bo‘lib qolmay, o‘zini fanini ham yaxshi bilishi lozimdir. Bolalarni musiqa san’ati bilan tarbiyalashi, dunyoqarashi, fikrlashi, tushunchasi birinchi darajali ahamiyatga egadir. Musiqa kishi xissiyotini ayniqsa emotsional estetik xissiyotini aktiv rivojlantiradi.

Musiqa o‘qituvchisi yaxshi sozanda va yaxshi san’atkor bo‘lishi lozimdir. Musiqa asbobida yaxshi chalish, ijro eta olish, yaxshi ovozga ega bo‘lishi, notaga qarab yaxshi ijro etish bolalar qobiliyatini ajrata bilishi lozimdir. Musiqa o‘qituvchisi musiqa

(cc) BY

asbobda yaxshi ijro etishni juda muhimligi quyidagicha ko‘rsatiladi. Birinchidan: Jonli ijro etish –Sinfda kayfiyatni yaxshilaydi.

Ikkinchidan: Jamoa bo‘lib (xor) ijro etayotganda hohlagan epizodni yoki (taktik) jumlani qaytarish.

Uchinchidan: Musiqa asbobida ijro eta oladigan musiqa o‘qituvchisi o‘z tarbiyalanuvchilariga musiqani o‘zi ijro etish naqadar qiziqarligini va muhimligini amaliyotda ko‘rsatib o‘tadi. Musiqa o‘qituvchisi musiqa asbobini yaxshi ijro etishi bilan cheklanib qolmay yaxshi tovush, dirijyorlik jesti bilan musiqa nazariyasini mukammal bilmog‘i va ijod qilishi lozimdir. O‘qituvchini shaxsiyatini musiqa fanining taqdirini hal qiladi. O‘qituvchi bulardan tashqari darslarni kuzatib borishi ham lozimdir. doimiy kuzatishlar sababli o‘qituvchi pedagogik mahoratini egallay boshlaydi. U vaziyatni (situatsiyani) baholashga, talabalarning ichki tuyg‘ularini sezishga o‘rganadi.

“O‘zbek musiqa tarixi” fani o‘qituvchining so‘z mahorati yuksak darajada bo‘lishi lozim. O‘qituvchini asar haqidagi kirish so‘zi va dars mavzusini tushuntirib berishi, talabalarni ajoyib va sehrli sanoat-musiqa olamiga olib kiradi. Va qiziqarli suhbat bilan talabalar diqqatini musiqa mavzularga yo‘naltirish mumkin. O‘qituvchini musiqa asari haqidagi hikoyasi qisqa va qiziqarli bo‘lishi kerak va o‘quvchilarni badiiy idrok etishga erishtirishi lozimdir.

Dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan muloqatda bo‘lgan usulini qo‘lasa, musiqa haqida to‘g‘ri mulohaza yuritishga, to‘g‘ri xulosalar chiqarrishga yordam beradi. Suhbat jarayonida ko‘proq o‘quvchilar baxsga o‘qtadilar. Bu faoliyatida o‘qituvchi rejissyor singari ularni boshqarib, to‘g‘ri xulosalarga erishtirilishi lozim. Musiqa darslarning samarali bo‘lishi uchun albatta yangi pedagik texnologiyalar bilan dars olib borish lozim. Baholash tizimini ham yangilash zarur. Faqat yozma va og‘zaki so‘rovlar bilan cheklanmasdan, portfolio, rubrika asosidagi baholash, o‘zaro baholash va refleksiya usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Portfolioda talabaning tadqiqot ishlari, taqdimotlari, audio yozuvlari va mustaqil ijodiy topshiriqlari jamlanadi. Rubrikalar esa baholash mezonlarini oldindan aniq belgilab, adolatli va shaffof natija beradi. Dars yakunida talabalarga “Bugun nimani o‘rgandim, nima menga eng qiziq bo‘ldi, qaysi savol ochiq qoldi” kabi refleksiv savollar berilsa, ular o‘z o‘quv jarayonini ongli boshqarishni o‘rganadi.

Innovatsion yondashuvni samarali joriy etishda o‘qituvchining kasbiy mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Pedagog fan mazmunini chuqur bilishi bilan birga, zamonaviy axborot texnologiyalari va faol o‘qitish metodlarini erkin qo‘llay olishi, doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi lozim. Shuningdek, o‘quv jarayonida milliy ruh va zamonaviy yondashuvni uyg‘un olib borish, talabaning individual qiziqish va qobiliyatlarini inobatga olish muhimdir. O‘qituvchi tomonidan yaratilgan do‘stona,

(cc) BY

ijodiy va ochiq muhit talabaning fikr bildirishdan cho‘chimasligiga, xato qilishdan qo‘rqmasligiga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, “O‘zbek musiqasi tarixi” fanini innovatsion yondashuv asosida o‘qitish talabalarning bilim darajasini oshirish bilan birga, ularning ijodiy tafakkuri, tadqiqotchilik ko‘nikmalari va milliy o‘zlikka bo‘lgan hurmatini shakllantiradi. Interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, loyihaviy ta’lim va fanlararo integratsiya uyg‘unlashgan holda qo‘llanganda, bu fan yodlashga asoslangan mavzudan jonli va ilhomlantiruvchi jarayonga aylanadi. Natijada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari milliy musiqa merosining haqiqiy targ‘ibotchilari va davomchilari sifatida kamol topadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nurullaev F.G. THE ROLE OF FOLKLORE IN THE RAISING OF CHILDREN European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part IIIISSN 2056-5852,-pp. 181-186.

2. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.

3. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.

4. FG Nurullaev, NK Nurullaeva, NK Sh. Formation of aesthetic education of children on the example of Bukhara folklore songs. Euro-Asia Conferences,2021. 1 (1), 34-36.

5. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.

6. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. MUSIQA TO‘GARAGLARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHGA OID NAZARIY-PEDAGOGIK HAMDA PSIXOLOGIK ASOSLAR. ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ| INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL . Vol. 39 No. 1 (2025)

7. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.

8. F.G. Nurullayev THE IMPORTANCE OF MUSIC LESSONS IN THE CULTIVATION OF STUDENT YOUTH CONSCIOUSNESS AND NATIONAL THINKING. Academic publishers INTERNATIONAL JOURNAL OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE (ISSN: 2692-5206) Volume 04, Issue 07, 2024

(cc) BY

9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.

10. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.

11. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Renabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.

12. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.

13. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.

14. Nurullaeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folkler music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.

15. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса. SCIENTIFIC PROGRESS.2021.Vol 2, №4(pp. 588-593)

16. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев- Содержание обучения Бухарским народным песням в музыкальном образовании. Academy, 48-50

17. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларига қўйиладиган методик талаблар. Pedagogik mahorat, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, 3-son. Buxoro. Б.175-180.

18. Firdavs To‘xtayev, F.G.Nurillayev, MUSIQIY TOVUSHLARINING XUSUSIYATLARI TENDENTSIYALARI. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2024/12/1,Tom-2,12, 8-15 betlar

19. F Nurullayev. Musiqa ta'limida Buxoro folklor qoʊshiqlarini oʊrgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari - phd) pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori diss, 2021

20. Istatov Muhriddin Qaxramonovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich-MUSIQIY TOVUSHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA CHOLGU ASBOBLARIDA JOR BOLISH USLUBLARI. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education, Hosted from New York, the USA https://confrencea.org Janruary 30th, 2024, Confrencea 1 (1),74-78

21. Sayfullayev Sanjarbek Sadullayevich Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. FOLKLOR QO ‘SHIQLARINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education,Hosted from New York,the USA https://confrencea.org Janruary 30th, 2024

22. Habibullayeva G.H.,Nurullayev F.G. O’ZBEK FOLKLOR QOʻSHIQLARINING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. Inter education & global study 2023

23. Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. “O‘ZBEK MUSIQASI TARIXI” FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. Ilm-fan va texnologiyalar. 2023 №2(1) Наука и технологии

24. Usmonov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrux Gaybulloyevich. O‘Quvchilarni Ma’naviy-Axloqiy Shakllantirishda O‘Zbek Xalq Qo‘Shiqlari Ahamiyati. Progress Annals: Journal of Progressive Research|Vol. 1 No. 8 (2023): Progress Annals.Published: 2023-12-06

25. Rahmonova Hojibuvi Rizojon Qizi, Nurillayev Farrux-Musiqaning inson ruhiyatiga tasiri qadimgi dunyo olimlarining qarashlarida. Ta'lim fidoyilari, OOO «Research and publications» 2022.Vol 24,№ 45, 73-83

26. Hamdamova Sitora Rustamova, Nurullaev Farrukh Gaibullayevich-MUSIC AS A TOOL FOR RAISING CHILDREN EARLY LIFE.Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development.2022/11/29 Vol.9, 422-427

27. Madaminova Muyassarxon, Nurullayev F.G.-Umumiy o’rta ta’lim maktablarida musiqa tarbiyasi. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)2022 Special issue,130-134, OOO «THE FUTURE OF A NEW DAY»

28. Usmanov Azizbek Azamatovich, Nurullayev Farrukh Gaibulloyevich. THE ROLE OF MUSIC CULTURE LESSONS IN THE GROWTH OF THE CONSCIOUSNESS OF THE STUDENT YOUTH AND NATIONAL THINKING. (2023). Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 1(4), 5-9.

29. Ф.Г. Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM Science and Education 2022. 3 (1), 595-601

30. Norqulov Sh Sh, F.G Nurullayev. Skripka cholg‘u asbobiga bir nazar. pedagogs international research journal| pedagogs | ped | volume-76 | issue-1(2025)